

**O'QUVCHI SHAXSI SHAKLLANISHIDA KASB TANLASHNING  
AHAMIYATI**

Berdiqulova Gulruxsor Nurbekovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti O'qituvchisi

Ma'lumki, xar bir individ shaxs sifatida shakllanar ekan, faqat o'zi yashab turgan davrdagi ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida bo'lib qolmasdan, shuningdek, tarixiy tajribalar, ajdodlar tomonidan yaratilgan, to'plangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy me'roslar, milliy qadriyatlar ta'siri ostida ham shakllanadi. Bunda ayniqsa, xar bir xalqqa mos bo'lgan milliy urf-odat va an'analarning ro'li kattadir. **Ёшлар ва замон. Ижтимоий-маънавий ўзгаришларнинг ўзига хос хусусиятлари, муаммо ва ечимлар талқини**

Shakllangan urf-odat, an'analar va milliy qadriyatlar shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirish ishida shaxsning xulk-atvorini ijtimoiy jihatdan belgilovchi, boshqarib turuvchi va shakllantiruvchi vazifalarni bajaradi. Shu boisdan ham Shaxs tanlagan kasbida faoliyat yuritishi davomida o'zi tarbiyalangan qadriyatlardan kelib chiqqan holdagi xarakter, qobiliyat va layoqat bilan kasbiga yondashadi va mehnat qiladi. Biroq qadriyat va urf-odatlarning yomoni bo'lmaydi aksincha noto'g'ri tushunish va anglash mavjud bo'ladi. Demakki biz hayot yo'limizda ongli ravishda tanlaydigan kasbimiz va biz amal qiladigan qadriyatlarmiz bizni shakllantiradi va boshqaradi.

Shuni unutmaslik kerakki kasb tanlash katta hayot yo'lidagi eng muhim qadamdir. Inson hayotda o'zini baxtli his etishi uchun albatta, atrofida mehribon, sevimli insonlar bo'lishidan tashqari, o'z qiziqishi bilan amalga oshiradigan kasbhunarga ham ega bo'lishi zarur. Ba'zi yoshlar ko'p yillar orzu qilib yurgan mutaxassislik uchun oliy ta'lim muassasasiga hujjat topshirish damlari yaqinlashganda, «Men kelajakda shu sohaning mutaxassisini bo'la olamanmi, bunga mening bilimim va iqtidorim yetadimi?» — deb o'ylanib qoladilar. Ayrimlar o'zlarining ko'p yillik orzularidan ham voz kechib, hozirgi kunda dolzarb ahamiyatlari o'rinn tutayotgan sohaga qiziqib, kutilmaganda o'z fikrlarini o'zgartiradilar. Asosiysi, yoshlar to'g'ri yo'lni tanlashi o'z hayotlari oldida juda katta mas'uliyatli vazifa ekanligini yaxshi bilishlari va faqatgina qiziqish va motivlari yuqori bo'lgan va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kasb sirlarini egallashga intilishlari zarur.

Agar kishi o'z sevgan kasbida ishlamayotgan bo'lsa u hech qachon har ertalab o'zini ishga ketayapman, deb hisoblamaydi. O'z sevgan kasbi bilan shug'ullanish kishiga zavq, xursandchilik, shijoat, rag'bat hamda ma'naviy ozuqa beradi. O'zi yoqtirgan ishni qilayotgan kishi vaqt qanchalar tez o'tib ketganligini sezmay qoladi, u hech qachon bajarayotgan ishidan charchamaydi.

Agar yoshlarimiz o'zlarini kelajakda shug'ullanishlari uchun kasb tanlayotgan bo'lsalar, faqatgina bu kasbdan keladigan moddiy daromadni emas, balki avvalo undan olishlari kerak bo'lgan ma'naviy ozuqani, jamiyatimizga qanday hissalarini qo'shishlarini, o'z qobiliyat va imkoniyatlarini hisobga olib harakat qilishlari kerak.

Malumki, kasb – hunarni egallash to'g'risida har xil munosabatlar hosil bo'lishining asosiy sabablaridan biri – bu mакtab o'quvchilarida kasb tanlash jarayonida turli xil motivlarning namoyon bo'lishidir. Motivlar o'rtaсидagi kurash ularning u yoki bu qarorga kelishlariga sabab bo'ladi. Bizningcha, voqelikka ongli munosabatda bo'lish ob'ektiv va qat'iy qarorni keltirib chiqaradi.

V.A.Krutetskiy o'spirinlarda kasb tanlashida uchrashi mumkin bo'lgan motivlardan quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tadi:

- 1) Biror o'quv faniga nisbatan o'spirinning qiziqish.
- 2) Vatanga foyda keltirish istagi (o'zlarining individual-psixologik xususiyatini va qobiliyalarini hisobga olgan holda).
- 3) Shaxsiy qobiliyatini ro`kach qilib ko`rsatish.
- 4) Oilaviy an'analarga rioya qilishi (vorislik).
- 5) Do`satlari va o'rtoqlaridan o'rnak olganligi.
- 6) Ish joyining va o'quv yurtining uyga yaqinligi.
- 7) Moddiy ta'minlanganlik. **Ёшлар ва замон. Ижтимоий-маънавий ўзгаришларнинг ўзига хос хусусиятлари, муаммо ва ечимлар талқини**

8) O'quv yurti ko`rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishning osonligi singari motivlardir.

Malumki o'spirinlar kasb tanlash to'g'risida yaqqol tasavvuriga ega bo'limganliklari boisidan ko`proq xatoga yo'l qo'yadilar. Tanlangan yoki tanlanishi zarur bo'lgan kasb undan qanday shaxs fazilatlarining talab qilishini tushunib yetmaydilar. Ular o'z layoqatlarini oqilona baholashga qurbi yetmaganligi uchun u yoki bu kasbni egallaganda qanday tezlikda va aniqlikda harakat qilishligini, sezish va idrok qilish xususiyatlarini, asab tizimining muvofiqlashishi mumkinligini bilmaydilar. Biroq hozirgi davrda bunday ko`ngilsiz xolatlarning oldini olish imkoniyatlari mavjud.

Xulosa qib aytadigan bo'lsak, quyidagi pedagogik – psixologik va ijtimoiy xususiyatlari umumiyligi tomonlarga alohida e'tibor berishimiz maqsadga muvofiq.

1. Kasblarni o'rganish metodlarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va lo`nda qilib ifodalash.

2. O'qituvchining kasb maorifi yuzasidan tashviqot ishlari olib borish o'qituvchilar bilan kasbga doir individual konsul'tatsiyalar – maslahatlar

uyushtirish, o'spirin va uning ota-onasi bilan kasbga yo'naltirish metodikasini birgalikda ko'zdan kechirish.

3. O'spirinlar va Ota-onalarni kasbning asosiy guruhlari, turlari bilan yaqindan tanishtirish; muayyan kasb oldiga qo'yiladigan shaxsning fiziologik, psixologik fazilatlari hamda kasb o'rghanishning yo'llari bilan tanishtirishni tashkil qilish.

4. Ota-onalarga kasblarning ahamiyati va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhiyatida yoshlarimizni kasbga yo'naltirish lozimligi haqida tashviqot olib boorish.

5. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarda dastlabki kasbiy tayyorgarlikni yuzaga keltirish va unga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish.

6. Psixodiagnostik va kasb tanlashga doir metodlarni amaliyatga tadbiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish.

7. Tuman va shaharlarda zamon talabiga javob beradigan kasb tanlash markazlarini jihozlash.

8. Kasb tanlashni tashviqot qilish yuzasidan o'spirinlarni ommaviy axborot vositasiga jalb qilish, ko'rgazmali vositalar, fotostendlar, kitoblar ko'rgazmasi va hunarmandchilik ijodiy faoliyatining mahsulotini namoyish qilish va ularni psixologik jihatdan tayyorlash.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda o'spirinlarning qiziqishi, mayli, ehtiyoji, iqtidori, malakasini hisobga olgan holda, milliy qadriyatlarimiz va vatanparvarlik ruhida to'g'ri yo'naltirish mamlakatimiz taraqqiyoti uchun puxta zamin hozirlaydi.

Zero, kasb bu hayot yo'limizdagi borlig'imiz, bizni jamiyatdagi o'rnimizni belgilaydi, vatanimizga xizmat qilish imkoniyatini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. G'oziev. E. Kasb psixologiyasi T.: Universitet. 2020
2. Milliy istiqlol g'oyasi; asosiy tushunchalar va tamoyillar. -T.: O'zbekiston, 2001.
3. A.R. Xojaboyev, I.A.Xusanov, U.N.Nishonaliyev. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. O'quv qo'llanma. T-2006.
4. Wikipedia.com